



ONA TILI DARSLARIDA YUKLAMALARNING O`QITILISHI

Abduxoliqva Zilola Abdulhamidovna

Marhamat tumani 35-maktab

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola “Ona tili darslarida yuklamalarning o’qitilishi” mavzusida yozilgan bo’lib, maktab ta’limida mazkur mavzuni o’quvchilar ongiga singdirish usullari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoritilgan.

Kalit so`zlar: yuklamalar, so`z, qo`shimcha, bog`lovchi, ko`makchi, vazifadosh, ta’lim.

Dunyo shiddat bilan o’zgarib barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo’layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga , axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Sh.Mirziyoyev

1.Yuklamalarning maktab ta’limida berilishi.

Yordamchi so’z turkumlari o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, ularning uch turi mavjud: bog’lovchi, ko’makchi va yuklama. Ular 5-7-8-sinflarda o’rganiladi.

5-sinfda yuklamalar uchun bir soat ajratilgan. Unda yuklamalar haqida umumiy ma’lumot, so’z va qo’shimcha yuklamalar tasnifi berilgan. Demak, o’quvchilar 5sinfda yordamchi so’zlar haqida umumiy ma’lumot oladilar xolos.

7-sinfda yuklamalar uchun yetti soat ajratilgan bo’lib, ushu sinfda yuklama haqida o’quvchilar ancha keng ma’lumotga ega bo’ladilar. Bu sinfda yuklamalar haqida ma’lumot, sof va vazifadosh yuklamalar, so’roq va taajjub yuklamalari, ayiruv-chegaralov yuklamalar, kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari, o’xshatish-qiyoslash yuklamalari, guman va inkor yuklamalari uchun soatlar ajratilgan.

8-sinfda esa yordamchi so’zlar uchun bir soat ajratilgan. Bu darsda o’quvchilar yuklamalar yuzasidan oldingi sinflarda olgan bilimlarini esga oladilar.

Bu darslar davomida o’quvchilarning yuklamalar haqidagi tushunchalari kengaytirilishi, to’ldirilishi va to’la shakllantirilishi kerak. Buning uchun, avvalo, o’qituvchi yuklama haqida keng va puxta bilimga ega bo’lishi zarur.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Yuklama o'zi nima, u qanday so'z turkumi, ularning gapdagi vazifasi nimadan iborat? Tuzilishiga, ma'nosiga va qo'llanishiga ko'ra qanday turlari mavjud?

Bu savollarga javob toppish, ularni o'quvchilar ongiga singdirish, buning uchun ta'limning eng yaxshi va yangi usullaridan foydalanish har birimizning oldimizdagi mas'uliyatli burchimizdir.

Yuklama so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayiruv-chegegaralash, gumon, o'xshatish, inkor ma'nolarini yuklovchi so'z va qo'shimchalaridir.

Ularga: 1) axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na...na so'zлari;

2) -mi,-chi, -a, (-ya), -ku, -u (-yu),-da, -oq (-yoq), -gina (-kina, -qina), -dir kabi qo'shimchalar kiradi. Ularning birinchi guruhi so'z yuklamalar, ikkinchi guruhi qo'shimcha yuklamalar hisoblanadi.

Yuklamalar ma'nosiga ko'ra olti turga bo'linadi:

1. So'roq-taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a (-ya).
2. Kuchaytiruv - ta'kid yuklamalari: hatto, -ki, ham, nahotki, axir, g'irt, -u (-yu), -da, oq (-yoq).
3. Ayiruv-chegeralov yuklamalari: faqat, atigi, -gina (-kina, -qina).
4. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: go'yo, go'yoki, xuddi,naq.
5. Gumon yuklamasi: -dir.
6. Inkor yuklamalari: hech, sira, na...na.

Yuklamalar sof va vazifadosh bo'ladi: -u (-yu), -da yuklamalari o'mida va bog'lovchisini ishlatish mumkin.

Ham yuklamasini -da yuklamasi o'rnila ishlatish mumkin.

Yuklamalar ichida gumon va inkor yuklamalari murakkabroq bo'lib, o'quvchilar ularni ajratishga qiynaladilar. Gap mazmuniga gumon ma'nosini yuklovchi -dir qo'shimchasi gumon yuklamasi hisoblanadi. Bu yeklama -man, -san qo'shimchalar qatorida turuvchi uchinchi shaxs qo'shimchasi -dir bilan shakldoshdir, -dir yuklamasi urg'u olmaydi.

Suv hayot manbaidir. Bu gapda -dir qo'shimchasi kesimlik qo'shimchasi bo'lib, gumon ma'nosini ifodalamaydi.

Ukam manzilga yetib olgandir. Uyga borayin-chi , onam kelgandir. Ushbu gaplarda esa -dir gumon ma'nosini ifodalovchi yuklamadir.Bu yeklama fe'ldan boshqa so'z turkumlariga qo'shilganda ko`proq kesimlik qo'shimchasi vazifasida keladi. Ayrim holatlardagina gumon ma'nosini ifodalashi mumkin. Masalan: O'sha kelgan mening onamdir. Endi bunga balki modal so'zini qo'shsak gumon ma'nosini kuchayadi: Balki,



o'sha kelgan mening onamdir. Bu gaplardagi gumon ma`nosi ko`proq kontekstda aniqlanadi. Ohangni o`zgartirish orqali ham gumon ma`nosini berish mumkin.

Inkor yuklamasi so'z yoki gapga inkor ma`nosini yuklaydi. Inkor yuklamalariga also, sira, hech, na...na kabilar kiradi. Yuklamalarni o'quvchilarga ongli va qiziqarli tushuntirish, albatta, o'qituvchidan bilim va mahorat talab etadi. Dars jarayoni qiziqarli hamda tushunarli bo'lishi uchun ba'zi usullarni qo'llab ko'rishimiz mumkin.

2.Yuklamalarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish.

Bu mavzuni 7-sinflarda berilgan "Gumon va inkor yuklamalari" uchun ajratilgan dars davomida yana ham yaxshiroq yoritishimiz mumkin.

Avvalo, o'quvchilardan o'tilgan mavzuni so'rab, topshiriqlarni bajarganliklarini bilib olamiz va qay darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish uchun o'tilgan mavzu yuzasidan yuklamalar qatnashgan bir necha gaplarni havola qilamiz. O'quvchilar gaplardagi yuklamalarni topadilar. Shundan so'ng o'quvchilar diqqatini doskaga qaratamiz. Doskaga mushuk tasvirini chizish orqali bolalarga "Chol bilan kampir" ertagini ijod qilamiz. Bolalar ertakdagagi yuklamalarni topishlari kerak. Mana shu tartibda bolalar ham biror tasvirni yaratish asosida yuklamalarni qatnashtirib ertak yoki hikoya tuzadilar va bu bilan bollalarni ijodkorlikka o`rgatamiz.

Keyingi bosqich yangi mavzuni tushuntirishdir. Inkor va gumon yuklamalarini tushuntirmasdan oldin ushbu yuklamalar qatnashgan gaplardan namunalar beramiz.

1. Mening onam o'qituvchidir.
2. Ular sizni yo'qlab kelishgandir.
3. U na o'qidi, na yozdi.
4. Na ishga bormadi, na uyga qaytmadi.

Birinchi gapda -dir yuklama emas, kesimlik qo'shimchasidir. Ikkinci gapda esa -dir gumon yuklamasidir. Uchinchi gapda na...na inkor yuklamasi emas, to'rtinchchi gapda esa inkor yuklamasidir. Oquvchilar ancha tushunchaga ega bo'lishgach, ularga A.Oripovning "Alisherning onasi" she'rin havola qilamiz, ular she'rdagi yuklamalarni topib daftarlari yozadilar. Bilmam, qanday ayol bo`lgan Alisherning onasi? Balki uning aqliga ham Lol qolgan zamonasi.

Balki uning ko`zlarida

Bo`lgan o`g`ir bir xayol

Balki g`amgin bir zotdir u,

Balki sho`xchan bir ayol.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

O`quvchilar bu she`rdagi ham, -dir yuklamalarini topadilar. She`rdagi balki modal so`z gumon ma`nosini kuchaytirayotganligi o`qituvchi tomonidan izohlab o`tiladi. Keyingi etap yangi mavzuni mustahkamlash bo`lib, unda “Sinkveyn tuzish” usulidan foydalanish mumkin. O`quvchilarga shunday topshiriq beriladi:

1-guruh o`quvchilari gumon yuklamasi haqida beshta ma'lumot topib daftarga yozadilar, 2-guruh o`quvchilari esa inkor yuklamasi haqida beshta ma'lumotni daftarlariga yozadilar. Masalan:

- 1) -dir yuklamasi urg'u olmaydi;
- 2) qo'shimcha yeklama;
- 3) -dir kesimlik qo'shimchasi bilan shakldosh;
- 4) Ba'zan balki so'zi bilan birga qo'llanadi; 5) Gumon ma'nosini yuklaydi.

“Keragini tanlab ol” usuli ham yuklamalarni o'zlashtirishda yaxshi natija beradi.

Bunda yuklamalar aralash qilib beriladi. O`quvchilarni ikki guruhga bo`lib, ularga quyidagicha topshiriq beriladi: 1-guruh kuchaytiruv-ta'kid, ayruv-chegegaralov yuklamalarini, 2-guruh esa o'xshatish-qiyoslash, so'roq-taajjub yuklamalarini ajratib o'z daftarlariga yozishlari kerak. Topshiriqni to'g'ri va to'liq bajargan guruh g'olib sanaladi.

KERAGINI TANLAB OL

-mi, -dir, sira, go`yo, xuddi, faqat, -gina, -u (-yu), go`yoki, ham, naq, hech, nahotki, -oq (-yoq). na...na, atigi, -chi, axir, g`irt, hatto, -ki, -da, -a(-ya)
--

Yana bir usul “Boshladim, davom ettir” usulidir. Bunda ikkala guruhdan bittadan o`quvchi doskaga chiqadi va 1- o`quvchi yeklama yozadi, 2- o`quvchi yeklamaga mantiqan mos so'z qo'shadi, 1-o`quvchi uni davom ettirib, gap holatiga keltiradi. Bu holatni o'rinn almashib yana takrorlash mumkin. Masalan:

-chi	Seni-chi / akang harbiymi ?
Sira	Sira bu gaplar / xayolimga kelmagan edi-da!
Xuddi	Xuddi onamga / o`xshab ketdingiz.
Nahotki	Nahotki sen / g`alaba qilding.
Faqat	Faqat yolg`iz / o`zi yashaydi.

Navbatdagi usulimiz “FSMU” usulidir. Bunda o`quvchilarga usul shartlari tushuntiriladi.

1. Yuklama haqida fikringizni bayon eting,
2. Fikringizning to'g'rililiga sabab keltiring.
3. Ko'rsatilgan sabablarni misollar bilan asoslang.
4. Fikrlaringizni umumlashtiring. Masalan:

F Yuklama yordamchi so'z, gap va so'zga qo'shimcha ma'no yuklaydi.	M Qishloqda yashagan damlarim sira yodimdan chiqmaydi. Bu gapda sira inkor yuklamasi bo'lib,gapga inkor ma'nosini qo'shyapti.
S U leksik ma'no bildirmaydi, gapda sintaktik vazifa bajarmaydi, ma'lum bir so'roqqa javob bo'lmaydi.	U Demak, yuklamalar gapga turli xil ma'nolarni yuklab, sozlovchning biror narsaga,shaxsga,voqeа-hodisaga munosabatini ifodalaydi.

Yuklamalar haqidagi bilimlarni umumlashtirish uchun Cho'lponning "Ko'ngil" she'rini o'quvchilar e'tiboriga havola etamiz. O'quvchilar undagi yuklamalarni topadilar.

Ko'ngil, sen munchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding? Na faryoding, na doding bor, Nечун sen muncha sustlashding?

Haqorat dilni og'ritmas,

Tubanlik mangu ketmasmi? Kishanlar parchalanmasmi Qilichlar endi sinmasmi?

Tiriksan,o'limgansan,

Sen-da odam, sen-da insosen,

Kishan kiyma,

Bo'yin egma,

Ki sen ham hur tug'ilgansan!

O'quvchilar she'rdagi -mi, -da, ham yuklamalarini, na...na inkor bog'lovchilarini topadilar.

Bundan tashqari "Nuqtai nazar", "Sheragini top", "SVOT", "Moychechak", "Ven diagrammasi", "Ikki qarsak" va boshqa usullardan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish haqida juda ko'p qaror va farmonlar chiqarildi. Bundan ko'zlangan maqsad pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali bilimli, ma'naviyati yuksak, mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo'sha oladigan yosh avlodni yetkazib berishdir. Buning uchun ta'lim sohasiga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish har bir o`ituvchining pedagogik burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. To`xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova – “O`zbek tili o`qitish metodikasi”, “Yangi asr avlodi” 2006.
2. N.Mahmudov, (A.Nurmonov), A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo`raboyeva. 5-sinf Ona tili. Toshkent-2015.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. 6-sinf. Ona tili. Toshkent-2013.